

TILSHUNOSLIKDA AFORIZMLARNING O'RGANILISHI

Sultonova Gulchehra

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

“O‘zbek tili va adabiyot” kafedrasi o‘qituvchisi.

E-mail: sultonova.g@mail.ru. Tel: +99894-260-50-50**<https://doi.org/10.5281/zenodo.19481284>**

Annotatsiya. *“Aforizm - bu muallifning ixcham, nozik shaklda ifodalangan va ifodaliligi, favquloddaligi bilan ajralib turadigan, umumlashtirilgan, chuqur fikr”. Ushbu ta’riflarga ko‘ra, aforizm tushunchasiga nisbatan o‘tmishda mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklar nafaqat kamayganiga, balki, yanada chuqurlashganiga ishonch hosil qilish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *“Aforizm” atamasi va uning xususiyatlari.*

Aforizmlar asrlar davomida butun dunyoda odamlarning diqqat markazida bo‘lib keldi va eng muhimi, bu qiziqishlar ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida ham shu maqeyini saqlab qoldi.

Ko‘plab davlatlarda aforizm jadal rivojlanib, o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqani ham buni tasdiqlaydi. O‘tgan davrda ijod qilingan adabiy asarlardagi aforizmlar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar deyarli yo‘q bo‘lganiga qaraganda, so‘nggi paytlarda aforizmlar bo‘yicha bir qator ma‘lumotli, nazariy maqolalar nashr etilmoqda, lingvistik xususiyatga ega tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. “Aforizm” atamasi qadim zamonlardan beri ma‘lum.

Bu janr, ayniqsa, Gretsiyada rivojlangan. Pifagor, Demokrit, Sokrat, Aflotun, Arastu, Epikur, Epiktet, Plutarx kabi qadimgi yunon mutafakkirlarining maqollari keng tarqalgan.

Qadimgi yunon olimi Gippokrat aforizmlarni “kasalliklarning belgilari va diagnostikasi, davolash va oldini olish san’ati haqidagi tibbiy traktati” deb atagan. Biroq antik adabiyotda “aforizm” so‘zining kengroq qo‘llanilishi haqida ma‘lumotlar mavjud. Tibbiy atamaga qo‘shimcha ravishda bu so‘z allaqachon “maksima”, “gnoma”, “dono” ma‘nosini anglatardi.

XII asrda Dante “aforizm” so‘zini faqat tibbiy ma‘noda ishlatgan. Keyingi asrlarda aforizmlar bir qator mamlakatlarda turli fanlarda, ayniqsa, metodologik va amaliy asoslari bo‘lmagan mamlakatlarda: huquqshunoslik, falsafa, siyosat, tabiiy fanlarda topila boshlandi.

Xorijda aforizmlar adabiyotga emas, balki fanga, xususan, falsafaga tegishli degan nazariyaning tarafdorlari ko‘plab topiladi. Aforizmlar, albatta, adabiy janr hisoblanishi kerak, ammo ular fanga yaqin va bu ularning bizning davrimizda mashhur bo‘lishiga yordam beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, aforizm muhim va qadimiy fan bo‘lsa-da u haqidagi nazariy fikrlar juda noaniqdir. “Aforizm” tushunchasining o‘zi noaniq ta’riflangan va shu sababli uning turlicha tushunilishi kuzatiladi. Olimlar tomonidan taklif qilingan aforizmning juda ko‘p ta’riflari mavjud bo‘lib, ayrimlarning tushunishida aforizm qisqa obrazli shaklda chuqur, ibratli fikr sifatida namoyon bo‘ladi. Yana boshqa olimlarning ta’kidlashicha, aforizm murakkab uslubdagi paradoksal hukm bo‘lib, o‘ziga xoslikka tortiladi. Aforizmga turli lug‘atlarda turlicha izohlar keltrilgan bo‘lib, O‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday ta’rif berilgan:

Aforizmga turli lug‘atlarda turlicha izohlar keltrilgan bo‘lib, O‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday ta’rif berilgan: AFORIZMLAR [yun. “aphorismos” – hikmatli so‘z] Ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap; hikmatli so‘zlar. Masalan: “Oz demak hikmatga bois, oz yemak sihatga bois” A.Navoiy” 15, “AFORISTIK Aforizm shaklidagi, aforizmga xos belgili Aforistik iboralar” 16 tarzida keltirilgani holda, hikmat so‘ziga berilgan izohda bu ma‘no bilan bog‘liqlik holati ochib berilmaganligini kuzatishimiz mumkin.

HIKMAT (a. – bilimdonlik, donishmandlik; hikmatli so‘z, maqol; tibbiyot ilmi, shifokorlik). 1. Aql-zakovat, donolik va uning ifodasi bo‘lgan, uni aks ettiruvchi narsa – gap-so‘z, fikr va sh.k.; donolik belgisi. “Oz yemak – tani sog‘liq, oz demak – hikmatga bog‘liq”.

Maqol. “Nodoning kulfati ko‘p, dononing – hikmati”.

Maqol. “Bobolarning hikmati hayotga yorug‘ yo‘ldir: “Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l”, der. E. Vohidov. “Podshoh bilan sherga yaqin bo‘lmoq hikmatdan emasdir”. «Uch og‘ayni botirlar» ertagi. «Kurashmoq – o‘rnak bo‘lib yashamoq, demakdir!», – degan edi mualliming, faylasuflarning hikmatini bayon qilib. I. Rahim, “Chin muhabbat”. “Harakatda barakat – ko‘p qadim hikmat”. M. Shayxzoda.



Aforizmlarning asosiy xususiyatlari Xorijiy manbalardan olingan ta’riflar aforizm tushunchasini yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi hamda uning qo‘shimcha xususiyatlarini ham o‘zida aks ettiradi. Aforizmlarning o‘ziga xos asosiy xususiyatlari 1-rasmda keltirilgan. “Aforizm - umumiy haqiqatni ifodalash uchun mo‘ljallangan qisqa aqlli so‘z”.

“Aforizm - umumiy haqiqatni yoki zukko kuzatuvni o‘zida mujassam etgan qisqa so‘z”.

“Aforizm - ta’limot yoki muayyan tamoyilning yoki umume’tirof etilgan haqiqatning esda qolarli shaklda taqdim etilgan qisqacha ifodasi”. “Aforizm - umumiy haqiqatni o‘z ichiga olgan qisqa mushohada. Yana bir ta’rifga ko‘ra, ilmiy prinsipning qisqacha bayoni, odatda klassik muallif tomonidan taqdim etiladi”

Aforizmlar masalasi o‘zbek tilshunosligida ham adabiyotshunosligida ham maxsus o‘rganilmagan. To‘g‘ri, adabiyotshunos M.Hakimovning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida “aforizm” termini mustaqil janr sifatida emas, keng ma’noda talqin qilingan.

Keyinchalik u o‘z dissertatsiyasini maxsus monografiyalar shaklida chop ettirdi. Biroq har ikki asarda ham ijodkorning xalq og‘zaki ijodi materiallaridan foydalanishdagi mahorati masalalari haqida bahs yoritilmaydi.

Xulosa. Hajmi jihatidan kichik, stilistik jihatdan siqilgan muallif gaplari “kichik janrdagi matnlar” deb ataladigan matnlar guruhini tashkil qiladi. Semantik tahlil til birligining ma’nosini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Ushbu ishda aforizmlarning semantik xususiyatlarini o'rganish ularning so'z boyligi va umumiy ma'nosini tahlil qilishni hisobga olgan holda qurilgan. Amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish va uzatish shakli bo'lgan va pragmatik mazmunga ega bo'lgan aforizm tili bir qator leksik va semantik xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Hakimov M. Yozuvchi va xalq tili (O'zbek sovet yozuvchilarining asarlarida maqol va aforizmlar).- T.: Fan, 1972
2. Alisher Navoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi. –T.: Fan, 1979. 26
3. Sarimsoqov B. Adabiy turlar haqida mulohazalar // “O‘zbek tili va adabiyoti”. – 1993 – 5-son. – B. 3-13.
4. Федоренко Н.Т., Сокольская Л.И. Афористика [Текст] / Н.Т. Федоренко, Л.И. Сокольская. - М.: Наука, 1990.
5. Захаров В., Богданова С. Корпусная лингвистика: учебник. 3-е изд., перераб. – СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2020. – С. 234 .